

*Egamberdiyeva Salima Rayimovna*

*i.f.n., dotsent*

*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti*

*O'zbekiston*

*Bozorov Yashnarbek*

*Qashqadaryo parmash ishlari MChJ buxgalteri*

*O'zbekiston*

**INVESTITSION MUHITNI SHAKLLANTIRISHDA KAPITAL  
QO'YILMALAR HISOBINI TO'G'RI TASHKIL ETISHNING  
AHAMIYATI**

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada korxonalarda investitsion muhitni shakllantirishda kapital qo'yilmalar hisobini to'g'ri tashkil etishning ahamiyati, buxgalteriya hisobi milliy standartlari hamda xalqaro standartlar asosida kapital qo'yilmalar hisobini yuritishdagi alohida xususiyatlari ochib berilgan. Xususan kapital qo'yilmalarni, investitsion mulkni, nomoddiy aktivlarni yaratish bilan bog'liq xarajatlarni mohiyati yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** investitsiya, kapital qo'yilma, asosiy vositalar, nomoddiy aktiv, biologik aktiv, investitsion mulk, asosiy vositalarni xarid qilish, parvarishlash, nomoddiy aktivlarni yaratish, uskunalarni o'rnatish.*

*Egamberdieva Salima Raimovna*

*Associate Professor*

*Karshi Engineering Economics Institute*

*Uzbekistan*

*Bozorov Yashnarbek*

*Accountant Kashkadarya Drilling Works LLC*

*Uzbekistan*

## THE IMPORTANCE OF CORRECT ORGANIZATION OF ACCOUNTING OF CAPITAL INVESTMENTS IN THE FORMATION OF THE INVESTMENT ENVIRONMENT

***Annotation:** This article reveals the importance of the correct organization of accounting for capital investments in the formation of the investment environment at enterprises, the features of accounting for capital investments based on national accounting standards and international standards. In particular, the nature of expenses associated with the creation of capital investments, investment real estate and intangible assets is highlighted*

***Key words:** investments, capital investments, fixed assets, intangible assets, biological assets, investment real estate, acquisition of fixed assets, maintenance, creation of intangible assets, installation of equipment.*

**Kirish.** Bozor munosabatlarining mukammallashuvi, tarmoqlar iqtisodiyotining jadal rivojlanishi va uning samaradorligini ta'minlashda investitsiyalar katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Bugungi kunda investitsiya larni bozor iqtisodiyotiga moslashtirish va investitsion faoliyatni boshqarish o'zgacha yondashishlarni talab etmoqda. Chunki, xo'jalik yuritishning zamonaviy yo'lini tanlash investitsion siyosatni ham tubdan o'zgartirishni talab qiladi. Chet el investitsiyalarini jalb qilish davlat siyosatida muhim vazifalardan biri ekanligi shubhasiz.

O'zbekistonda bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi iqtisodiy tarmoqlarining barcha sohalari va yo'nalishlarida iqtisodiy erkinlikni ta'minlashni talab etadi. Bu esa investitsion faoliyat rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, "Bizning asosiy maqsadimiz – O'zbekistonni xorijiy investorlar uchun ishonchli va uzoq muddatli hamkorga aylantirishdir." [2]

Bozor munosabatlarining rivojlanib borishi, uni tashkil etuvchi subyektlar iqtisodiy faoliyatlari moddiy bazasining rivojlanishiga bog'liq, chunki moddiy

resurslardan samarali foydalanish har qanday iqtisodiy o‘shishning sharti va bosh omili hisoblanadi.

O‘tkazilayotgan islohotlar natijasida mazkur muammoning yechimi sifatida “yirik davlat korxonalarida moliyaviy hisobot tuzish va audit o‘tkazishda xalqaro standartlarni joriy qilish”[1] kabi muhim vazifalar belgilab qo‘yildi. Korxonalar faoliyatida kapital qo‘yilmalarni to‘g‘ri hisobga olish, dastlabki xujjatlashtirish va iqtisodiy samaradorligini baholash, ularni tegishli obyektlar o‘rtasida aniq taqsimlanganligi hamda maqsadli sarflanganligini tekshirishda ko‘pgina muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Kapital qo‘yilmalarni hisobga olishning amaldagi tartibi sarflangan kapital xarajatlarni to‘liq va ishonchli aks ettirish, kapital qo‘yilmalar bilan bog‘liq mablag‘larni aniq maqsadga yo‘naltirish, qurilish ishlarini moliyalashtirishda mablag‘lar taqchilligini bartaraf etish hamda qurilishi tugallangan obyektlarni foydalanishga o‘z vaqtida topshirilishini ta‘minlash, shuningdek axborotdan foydalanuvchilarga ma‘lumotlarni aniq va o‘z vaqtida yetkazish imkonini bermaydi.

Shuningdek, respublikamizda bu masalalar buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari va boshqa meyoriy hujjatlar talablari darajasida ilmiy jihatdan iqtisodchi olimlar tomonidan to‘liq hal etilmagan hamda bu boradagi muammolarning zamonaviy yechimlarini batafsil qamrab olmaydi.

Iqtisodiyot tarmoqlarida iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish jarayoni jahon tajribalari asosida, respublikamizning milliy xususiyatlarini inobatga olgan holda, iqtisodiyotni rivojlantirish modelini yaratish turli xil mulkchilik va xo‘jalik shakllarida faoliyat yuritayotgan jamoa, ijara, shirkat, aksiyadorlik jamiyatlarida buxgalteriya, ayniqsa xarajatlarining tarkibini belgilash, ularning hisobini va iqtisodiy tahlilini tashkil etish va takomillashtirish kabi muhim vazifalar qo‘yilmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ta‘kidlash joizki, keyingi vaqtlarda Rossiyalik iqtisodchi olimlar olim A.D.Sheremetning [4] tadqiqotlarida kapital

qo'yilmalar hisobi hamda auditni mustaqil fan sifatida tan olish, uning predmeti va obyektlarini aniqlashtirish va fanning yangi qirralarini tadqiq etish dolzarb deb qaralmoqda. Mazkur masalada yana bir iqtisodchi olim V.I.Podolskiy[5] esa, o'z tadqiqotlarida A.D.Sheremet[4] shakllantirgan xulosalarga asoslangan holda kapital qo'yilmalar hisobi hamda audit nazariyasining bir qator qoidalarini yanada rivojlantirgan.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan bu masalalar yaratilayotgan darslik, monografiya va o'quv qo'llanmalar, shuningdek, e'lon qilinayotgan ilmiy maqola va tezislarda qisman o'rganilgan. Bu borada, M.M.Tulaxodjayevaning ta'rifiga ko'ra "korxonalar o'zini modernizatsiya qilishga investitsiya qilayotgan mablag'lar kapitalizatsiya xarajatlari yoki kapital qo'yilmalar deb ataladi." [6]. Yana bir iqtisodchi olim, professor H.N.Musayevning ta'kidlashicha: "iqtisodiyotda kapital qo'yilmalar deganda asosiy vositalarni yangilash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar tushuniladi.

Hozirgi davrda mamlakatimizda kapital qo'yilmalar asosiy vositalarga qilinadigan investitsiyalar shaklida amalga oshiriladi." [7].

R.D.Dusmuratovning fikriga ko'ra "iqtisodiyotda kapital qo'yilmalar deganda asosiy vositalarni yangilash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar tushuniladi. Hozirgi davrda mamlakatimizda kapital qo'yilmalar asosiy vositalarga qilinadigan investitsiyalar shaklida amalga oshiriladi" [8].

Ta'kidlash joizki, yuqoridagi tadqiqotlarda mavzuga oid umumiy qarashlar keltirilgan bo'lsada, biroq kapital qo'yilmalarni xarajat sifatida uning mohiyatini ochib berish va uning metodologik masalalari alohida ilmiy tadqiqot obyekti va yaxlit tizim sifatida tadqiq qilinmagan. Bu holat mazkur mavzuda kompleks ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari, ilmiy monografiyalari, o'quv qo'llanmalari va maqolalarini tahlil qilish, statistik tahlillari, jadvallarni analitik taqqoslash, guruhlash, miqdor va sifat

ko'rsatikichlarni hisoblash, ularni bir-biri bilan solishtirish kabi uslublardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisoboti yuzasidan xulosa berishda auditorlar o'zlarining shaxsiy, haqqoniy va mutaxassisligi bo'yicha yuqori darajadagi bilimlariga tayanishlari lozim, zero auditorlar tomonidan xo'jalik subyektining moliyaviy hisobotlari to'g'risida berilgan beg'araz xulosadan mulk egalari, investorlar, kreditorlar, banklar aksiyalarni sotib olishda va sotishda, kreditlar va qarzlar berish to'g'risida qarorlar qabul qilishda foydalanadilar.

Shuningdek, audit rejasida kapital qo'yimlarni tarkibi, ularni shakllantirish manbalari va korxonada kapital quyilmalar bo'yicha ichki nazorat tizimining samaradorligi kabi masalalar aks ettiriladi. Bu masalalarni o'rganishda korxonaning hisob siyosati va kapital qo'yimlarni shakllantirishga doir hujjatlar, qurilish tashkilotlari bilan tuzilgan pudrat shartnomalari, qurilish ishlarining bajarilishini tasdiqlovchi hujjatlar ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Bozor munosabatlari sharoitida "investitsiyalar", "kapital qo'yimlar" va "oborotdan tashqari aktivlarga qo'yimlar" kabi iqtisodiy atamalar keng qo'llanilmoqda. Aslini olganda, bu atamalar zamirida korxonaning mulkini qurish, sotib olish, yangilash, ko'paytirish kabi mazmun yotadi. Kapital qo'yimlarning tarkibiga asosiy vositalar, tabiiy resurslar va nomoddiy aktivlarni sotib olishdan tashqari asosiy vositalarni o'sishi va ularni yaxshilanishiga sarflanadigan xarajatlar ham kiradi.

O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining 21-sonli standartiga ko'ra kapital qo'yimlarga shunday ta'rif berilgan: Kapital qo'yimlar- "Korxonaning asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarga investitsiyalari, shuningdek mahsuldor va ishchi hayvonlarning asosiy podasini tashkil qilish bo'yicha xarajatlardir" [3].

Kapital qo'yimlarni ta'rifi hozirgacha aksariyat iqtisodiy adabiyotlarda asosiy vositalar va nomoddiy qurilish, xarid qilish bilan bog'liq xarajatlar deb qaralib kelingan. Shundan kelib chiqib, kapital qo'yimlar hisobini xalqaro

standartlar asosida tashkil etish uchun kapital qo'yimalarga ta'rif berishda buxgalteriya hisobini va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar asosida tashkil etishda bizningcha, kapital qo'yimlarni ta'rifi hamda hisobga oluvchi schyotlarni ham tarkibini o'zgartirish zarur.

Kapital qo'yimlar ta'rifi quyidagicha ifodalansa maqsadga muvofiqdir: "Uzoq muddatli aktivlarni qurish, xarid qilish, yaratish (nomoddiy aktivlarni ayrimlari yaratiladi), parvarishlash (bioloik aktivlarni ayrimlari o'simliklar o'stiriladi, hayvonlar boqiladi), shakllantirish (ayrim uzoq muddatli aktivlar-investitsion mulk shakllantiriladi) bilan bog'liq xarajatlar kapital qo'yimlar deyiladi."

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida korxonalarida kapital qo'yimlar hisobini takomillashtirish dolzarb muammolardan hisoblanadi. Shu munosabat bilan respublikamizda kapital qo'yimlarni hisobga olib boruvchi schyotlarni xorijiy davlatlardagi amaliyot bilan taqqoslash maqsadga muvofiqdir (1-jadval).

Shu nuqtai nazardan amaldagi kapital qo'yimlarni hisoba oluvchi schyotlarni tarkibini quyidagicha shakllantirishni taklif etamiz:

**1-jadval<sup>1</sup>**

**Kapital qo'yimlar bo'yicha qo'llanilayotgan schyotlarning tavsifi**

Schyotlar ning raqami	Schyotlarning nomi	Schyotla r ning raqami	Schyotlarning nomi
<b>Amaldagi</b>		<b>Taklif etilayotgan varianti</b>	
0810	Tugallanmagan qurilish	08-1	Tugallanmagan qurilish
0820	Asosiy vositalarni sotib olish	08-2	Asosiy vositalarni xarid qilish
0830	Nomoddiy aktivlarni sotib olish	08-3	Asosiy vositalarning alohida ob'ektlarini sotib olish
0840	Asosiy podani shakllantirish	08-4	Nomoddiy aktivlarni xarid qilish
0850	Yerni obodonlashtirishga kapital qo'yimlar	08-5	Nomoddiy aktivlarni yaratish
0860	Uzoq muddatli ijara	08-6	Biologik aktivlarni shakllantirish

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

	shart-nomasi olingan vositalarga	bo'yicha asosiy		
0890	Boshqa qo'yilmalar	kapital	08-6-1	Mahsuldor hayvonlarni sotib olish
			08-6-2	Ishchi hayvonlarni sotib olish
			08-6-3	Yosh mahsuldor hayvonlarni parvarishlash
			08-6-4	Yosh ishchi hayvonlarni parvarishlash
			08-6-5	O'simliklarni parvarishlash
			08-7	Investitsion mulk obektlarini shakllantirish
			08-8	Yerni obodonlashtirishga kapital qo'yilmalar
			08-9	Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarga kapital qo'yilmalar
			08-10	Boshqa kapital qo'yilmalar

Schyotlar rejasiga taklif etilayotgan variantdagi yangi schyotlarni kiritilishi kapital qo'yimlarni kelgusidagi samaradorligini tahlil qilish imkoniyatini kengatiradi. Xususan, asosiy vositalarning alohida ob'ektlarini sotib olish schyotini kiritish orqali katta hajmdagi asosiy vositalar obyektlarini sotib olish xarajatlari agar kelgusida mavjud asosiy vositalar qiymatini oshirsa, ularga qilingan kapital qo'yimlarni shakllantirish xarajatlarini tahlil qilishda 08-3-“ Asosiy vositalarning alohida ob'ektlarini sotib olish” schyotida shakllangan summani ajratib ko'rsatishda ma'lumotlarni aniqlashtirish imkoni yaratiladi.

Nomoddiy aktivlarni ayrimlarini xarid qilinsa, ayrimlari yaratiladi, ularni boshlang'ich qiymatini to'g'ri shakllantirish uchun xarid qilingan va yaratilgan nomoddiy aktivlarga kapital qo'yimlar schyotlarini alohida aks ettirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun biz 08-4- «Nomoddiy aktivlarni xarid qilish», 08-5-«Nomoddiy aktivlarni yaratish» schyotlarini taklif etamiz.

Mahsuldor hayvonlarni va ishchi hayvonlarni sotib olish va parvarishlash bilan bog'liq xarajatlarini alohida aks ettirish maqsadga muvofiq. Chunki kelgusida ular asosiy podaga o'tkazilganda ularni boshlang'ich qiymati to'g'ri shakllanishi kerak. Chunki standartlarga ko'ra, ishchi hayvonlarga amortizatsiya hisoblansa, mahsuldor hayvonlarga hisoblanmaydi. Shuning uun ularni shakllantirish bilan bog'liq xarajatlar 08-6-1- «Mahsuldor hayvonlarni sotib olish», 08-6-2-“ Ishchi

hayvonlarni sotib olish”, 08-6-3-“ Yosh mahsuldor hayvonlarni parvarishlash”, 08-6-4-“ Yosh ishchi hayvonlarni parvarishlash” schyotlarida alohida hisobga olinsa ma’lumotlarni tahliliy xususiyati oshadi.

**Xulosa va takliflar.** Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida korxonalarida kapital qo’yilmalar hisobini takomillashtirish dolzarb muammolardan hisoblanadi. Shu munosabat bilan respublikamizda kapital qo’yilmalarni hisobga olib boruvchi schyotlarni xorijiy davlatlardagi amaliyot bilan taqqoslash maqsadga muvofiqdir.

Kapital qo’yilmalarning hisobini yuritishda boshlang‘ich xujjatlarni to‘g‘ri to‘ldirish va ular hisobini aniq yuritish buxgalteriya ishlarining asosini tashkil etadi. Shu bilan birga buxgalteriya hisobining asosiy vazifasi bo‘lgan nazorat qilishni kuchaytirish lozim.

Iqtisodiyot tarmoqlaridagi korxonalarda kapital mablag‘lardan samaraliroq foydalanish uchun, mablag‘larni oqilona sarflash, xarajatlarni qisqartirish, buxgalteriya hisobi hujjatlarini ixchamlashtirish, kapital qo’yilmalar tahlilini takomillashtirish va kapital qo’yilmalar bilan bog‘liq xarajalarni hisobga oluvi schyotlarda ma’lumolarni to‘g‘ri aks ettirish masadida schyotlar rejasiga xalqaro standartlar talablariga javob bera oladigan tarzda analitik schyotlarni kiritishni taklif etamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ4611son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumidagi nutqi. 02.05.2024y.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (21-son BHMS) “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo‘jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schyotlari rejasiva uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma”. O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 09.09.2002 yildagi 103-sonli burug‘i.



- 4.Шеремет А.Д., Суйц В.П. Аудит. Учебник. -М.: ИНФРА-М, 2009. -456 с.
- 5.Подольский В.И. Аудит.Учебник.4-е изд. - М.: 2010. 744 стр.
6. То‘laxodjayeva M. “Korxonа moliyaviy ahvoli auditi”, O‘quv qo‘llanma. “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” - T.: 1998. 193 b
- 7.Musayev H.N. Audit. Darslik. - T.: “Moliya” 2013 y. 14 -bet.
- 8.Dusmurotov R.D. Auditorlik faoliyati: nazariya, uslubiyot va amaliyot. MonografiyaY. -T.: Moliya, 2017. -22- bet.
9. Dustova M. COINS TO CRYPTOS: TRACING THE THREADS OF ECONOMIC TRANSFORMATION //Iqtisodiyot va ta’lim. – 2023. – T. 24. – №. 5. – С. 78-82.
10. Sobitjon M., Dustova M. X. QADIMGI VA HOZIRGI DUNYO DAVLATLARI IQTISODIYOTIDAGI FARQLAR, BOG'LIQLIKLAR VA O'XSHASHLIKLAR //PEDAGOG. – 2022. – T. 5. – №. 7. – С. 804-807.
11. Dustova M. X., Shomurotova S. O. TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI SAMARALI BOSHQARISH //Conferencea. – 2022. – С. 119-121.